

Bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish doirasida "Global" paketini xarid qilish bo'yicha OMMAVIY OFERTA

"O'z sanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda "Bank") yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkor (keyingi o'rinlarda "Mijoz") larga ushbu "Bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish doirasida "maxsus paketlar" xarid qilish bo'yicha Ommaviy oferta" (keyingi o'rinlarda "Oferta")ni taklif etadi.

Mazkur Oferta va uning shartlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370-moddalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mijoz mazkur taklifda ko'zda tutilgan xatti-harakatlarni amalga oshirgan (qabul qilish tugmasini bosish) paytdan boshlab, Bank va Mijoz (keyingi o'rinlarda "Tomonlar") o'rtasida **"Global" paketi** xarid qilish ommaviy ofertasi akseptlangan deb hisoblanadi va Mijoz ushbu Ofertaning barcha shartlarini istisno qilmasdan so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

1. OFERTA PREDMETI

1.1. Mijoz Bankning **"Global" paket xizmatini** xarid qilish, Bank esa, mazkur paket amal qilish muddati davomida, Ofertaning 1-ilovasida belgilangan imtiyozlar asosida Mijozning bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi.

1.2. Bank hisobvarag'ini (keyingi o'rinlarda "hisobvaraqq") ochish, hisobvaraqqga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va hisobga kiritish, Mijozning hisobvarag'idan tegishli pul mablag'larini o'tkazish hamda berish va hisobvaraqq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar Mijoz va Bank o'rtasida mazkur Ofertadan oldin tuzilgan Bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda "Xizmat ko'rsatish shartnomasi") doirasida tartibga solinadi.

2. BANK SIRI

2.1. Mijozga xizmat ko'rsatish jarayonida ma'lum bo'lgan hamda kelajakda ma'lum bo'ladigan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq sir saqlanadi.

2.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat Mijozning yozma ravishdagi murojaatiga asosan uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga berilishi mumkin.

2.3. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlari uchinchi shaxslarga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar mavjud bo'lganda o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi.

3. BANK XIZMATLARI UCHUN TO'LOVLARNING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

3.1. Mijoz bank hisobvarag'lariga ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash asosiy Xizmat ko'rsatish shartnomasining 5.2-bandiga muvofiq "Global" paket xizmati amal qilish davrida mazkur Ofertaning 1-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi. Maxsus paketda ko'zda tutilmagan xizmatlar uchun to'lovlar Xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq umumiy tariflardan kelib chiqqan holda undiriladi.

3.2. Paket xizmati amal qilish muddati tugashi bilan Mijozning bank hisobvarag'iga ko'rsatilgan xizmatlar uchun Xizmat ko'rsatish shartnomasida qayd etilgan tartibda haq undiriladi.

3.3. Mazkur shartnoma bo'yicha xizmat haqi paket xarid qilgan kunning o'zida Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga asosan Bank tomonidan Mijozning topshirig'isiz (akseptsiz tartibda) hisobdan chiqariladi. Hisobdan chiqarilgan mablag'lar to'g'risida Mijoz, mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan, masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari yoki Bank hisobvarag'idan ko'chirma taqdim etish orqali xabardor qilinadi.

3.4. Bank tariflariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, bunday o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin Bankning rasmiy saytida (www.sqb.uz) e'lon qilish orqali xabardor qilinadi. Bank Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlarni masofaviy xizmatlarni ko'rsatish dasturlari,

mijozlarning mas'ul xodimlariga SMS xabarlar yuborish, bank amaliyot zallaridagi tegishli e'lonlar peshtaxtasida xabarni joylashtirish yoxud Mijozning mas'ul xodimini yozma ravishda tanishtirish orqali xabardor qilinishi mumkin.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri ushbu Ofertada belgilangan majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida boshqa tomonga yetkazilgan zararni to'laydi hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari va Xizmat ko'rsatish shartnomasida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4.2. Bank quyidagi hollarda Mijozning nomidan Bankning "SQB Business" dasturi orqali amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi:

- Mijozning yaqinlari va qarindoshlari hamda uchinchi shaxslarga "SQB Business" dasturida Mijozning shaxsiy sahifasiga Mijozning shaxsan o'zi kirish va undan foydalanish imkoniyatini bergan taqdirda;

- Mijozning PIN (PIN) kodlari va parollari, mobil ilova va Mijozning bank kartalari bo'yicha kelgan sms xabarnomadagi kodlarning Mijozning aybi bilan boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi natijasida;

- Bankka Mijoz nomidan noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etilishi natijasida.

4.3. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

a) banklararo elektron to'lovlar tizimida bo'lgan uzilishlar natijasida yetkazilgan har qanday zarar uchun;

b) Mijoz tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan yoki to'g'ri rasmiylashtirilmagan to'lov hujjatlari taqdim qilinganida;

d) qonunlarda belgilangan tartibda Bank yoki Mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda;

e) elektr-energiyasi bo'lmagan hollarda yoki boshqa fors-major vaziyatlarda.

5. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu Oferta yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

5.2. Agar kelib chiqqan nizo va kelishmovchiliklarni muzokora yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Mijoz bilan Xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolagan Bank xizmatlari ofisi (BXO)/,Bank xizmatlari markazi (BXM) joylashgan joydagi sudda hal etiladi.

5.3. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro e'tiroz va nizo (da'vo)lari qonunchilikda belgilangan tartibda Bank ishtirokisiz hal etiladi.

6. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

6.1. Bank va Mijoz o'rtasidagi mazkur Ofertada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Xizmat ko'rsatish shartnomasi talablariga muvofiq tartibga solinadi.

6.2. Mazkur Oferta belgilangan tartibda akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar ushbu oferta bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar amalda bo'ladi.

6.3. Mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlari buzilganda ushbu Oferta Bank tomonidan Mijozga xabar berish orqali bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

Bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish doirasida "Global" paketini xarid qilish bo'yicha Ommaviy Ofertaga ilova

**Bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish doirasida
"Global" paketi bo'yicha tariflar***

№	Amaliyot turi	Qiymati / tavsifi
1.	Mijozlarga ma'lumotnomalar, tasdiqnomalar va ko'chirma nusxalarini berish	Bepul
2.	Milliy valyutadagi bank hisob varaqlari bo'yicha mablag'larini o'tkazish (debet aylanma)	Bepul*
3.	Korporativ karta hisobvarag'ini yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvarag'idagi mablag'lar hisobiga to'ldirish	Summadan 0,4%
4.	Boshqa maqsadlar uchun naqd pul mablag'lari berilishi	Summadan 0,5%
5.	Chiqarilgan har bir elektron to'lov uchun	500 so'm + QQS
6.	Bank masofaviy xizmat turlariga ulanish/ qayta ulanish/ oylik abonent to'lovi -“SQB Business” -“Bank mijoz”, -“SMS-banking”, -“Mobil banking”	Bepul
7.	Korporativ bank kartalarini chiqarish (Uzcard va Humo)	Bepul
8.	Mijozlarning xorijiy valyutadagi mablag'larini respublikadan tashqariga o'tkazish	Har bir o'tkazma summasidan 0,10% (minimal miqdori 400 000 so'm + QQS maksimal miqdori 5 000 000 so'm + QQS)
9.	Import akkreditivini ochish	Summadan 0,12% (minimal miqdori 400 000 so'm + QQS maksimal miqdori 5 000 000 so'm + QQS)
10.	Xorijiy valyuta konvertasiyasi kursi AQSh dollari Rossiya rubli	Markaziy bank kursi $\pm 0,3\%$ Banklararo tijorat kursi $\pm 0.5\%$
11.	Paket xizmati oylik abonent to'lovi	3 000 000 so'm + QQS (bir oy uchun) 8 550 000 so'm+QQS (uch oy uchun) 16 740 000 so'm+QQS (olti oy uchun) 32 400 000 so'm+QQS (o'n ikki oy uchun)
12.	Paket xizmati amal qilish muddati	Muddatsiz

* Izoh:

*Mijoz tomonidan Paket foydalanish muddati davomida paketdan foydalanish to'xtatilganda, boshqa paket xizmatiga o'tilganda yoki hisobraqami boshqa bankka ko'chirib o'tilganda, shuningdek

paketdan foydalanish muddati o‘n ikki oydan kam bo‘lgan hollarda, paketdan foydalanish muddatida amalga oshirilgan debet aylanmaning har oyi uchun 3,0 mlrd.so‘mdan oshgan qismidan 0,1% miqdorida bank komissiyasi qayta hisob-kitob qilinib mijozdan undiriladi (Yuridik shaxs va YaTtlarning yagona davlat reyestridan chiqarilishi, shuningdek shartnomaga asosan o‘n ikki oy uchun abonent to‘lovi amalga oshirilgan holatlar bundan mustasno).

Ushbu paket xizmatida ko‘rsatilmagan bank xizmatlari uchun to‘lov amaldagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

Paket xizmatidan foydalanish muddati tugagandan so‘ng, mijoz avtomatik tarzda amaldagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarga o‘tadi.

Paket xizmatidan foydalanish muddati tugagandan so‘ng (yoki mijoz xohishiga ko‘ra paketdan foydalanish muddati davomida ham), agar ushbu paket faoliyati to‘xtatilmagan yoki cheklanmagan bo‘lsa, mijozning yozma murojaati asosida paketdan foydalanishning yangi davrga uzaytirilishi mumkin (masofaviy xizmatlar orqali amalga oshirilish holatlari bundan mustasno).